

# NUTQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA IBORALAR, MAQOL HIKMATLI SO'ZLARNING O'RNI

Dilfuza Paraxadova

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti  
talabasi

Bitta so'z olamni vayron qiladi

Bitta so'z qorqoni vayron qiladi

( J . Rumiy )

Biz har kuni turli insonlar bilan muloqotda bo'lamiz ,va qaysidir ma'noda ularni o'zimizga qaratmoqchi bo'lamiz .Hozirgi zamon hayot sur'ati ishchan muloqot jarayonida aniq, tezkor va muofiq munosabat bildirishni talab etadigan favqulodda holatlarni vujudga keltiradi .Bu o'z navbatida muayyan bilimni ,har qanday odamlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakillantirishni talab etadi .

Notiqning muoffaqiyati ko'p jihatdan avvalboshidan tinglovchilar qalbiga yo'l topish, ular bilan aloqa o'rnatishga bog'liq zero muloqot jarayoni ,birinchi navbatda odamlar o'rtasida axborot almashishdan iborat bo'lib ,undan ko'zlangan maqsad uzatilayotgan va qabul qilinayotgan axborotning tushunarligini ta'minlashdir Notqlik san'atida badiiy adabiyot muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotdan mohirlik bilan foydalanish nutqning jonli ,ifodali va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi .Xalqimiz orasida "Berdisini aytguncha shoshmay tur ","Tomdan tarasha tushganday gapirma ",degan naqlar bor .Zero ,tadbirkor va aqilli odamlar suhbatdoshlariga biron jiddiyroq fikrni aytishdan oldin tinglovchini suhbat mavzuiga obdon tayyorlab olishga harakat qiladilar .Yuqorida keltirilganlardan korishimiz mumkinki ,nutq jarayonida badiiy adabiyotdan parchalar keltirish ,maqollardan o'rinli foydalanish nutqimizning ta'sirli va xalqqa yaqin bo'lishiga kata yordam beradi .Ammo badiiy asardan parcha keltirilayotganda o'sha asarning omma ongiga singib ketganmi ,yo'qmi, shu taraflarga ham e'tibor berishimiz kerak .Chunki ko'pchilik o'qimagan badiiy asardan olingan parcha tinglovchiga tushunarsiz bo'lib uni chalg'itadi .Buning uchun notiq o'ta zukko va bilimli bo'lishi talab etiladi.

Nutqda maqol,matal,frazeologik iboralar ,hikmatli so'zlarni o'rinli ishlata bilish ham o'ziga xos bir san'atdir.Maqol ,matal,hikmatli so'zlar o'z ma'nodorligi

,yorqin va ixchan shakli bilan kishilarningong va hissiyotlariga kuchli ta'sir etadi.Maqol ,matal , hikmatli so'zlar bir necha yuz ming yillar davomida tarkib topgan xalq donishmandligining durdonalaridir .Bular bilan bezatilgan nutqni tinglovchilar qiziqib eshitadilar .Maqol , matal,hikmatli so'zlar notiq nutqini jonli qiladi,uning ta'sirchanligini kuchaytiradi .

Uzukka yoqt ko'z qanday yarashsa ,maqol ham notiqning nutqiga shunday gozallik bag'ishlaydi .Xalqimizning "So'z ko'rki- maqol ",deb aytgani bejiz emas .Masalan ,”Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar ”,”Yaxshidan bog’ qolar yomondan dog’ ”,”Ish ishtaha ochar dangasa ishdan qochar ”,”Do’st achitib ,dushman kuldirib gapirar ”, “O’zga yurtda shoh bo’lguncha ,O’z yurtingda gado bo’l ” va boshqalar .Biz ijtimoiy hayotning bazi sohalariga taalluqli ayrim hikmatli so'z vamaqollarni misol tariqasida keltirdik .

Maqol va matallarni o'rinci ishlata bilish notiqdan kata mahorat talab qiladi ,uning notiqlik san'atini qanchalik egallaganini isbotlaydi .Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni taminlash uchun maqollardan ,matallar ,hikmatli so'zlardan ,iboralardan ayniqsa frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur .Yozuvchi A.Qahhor o'z hikoyalarida epigraf sifatida berilgan maqollar orqali o'quvchilar diqqatini darhol egallaydi .”Osmon yiroq –yer qattiq “(Bemor), “Otning o'limi itning bayrami “(O'g'ri ),va b.

Notiqlik juda murakkab va mas'uliytli soha bolib ,notiqdan o'z ustida tinmay ishlashni ,notiqlik mahoratini tobora oshirib borishini talab qiladi . Buning uchun notiq yoki notiqlikka da'vogar shaxs til boyligini oshirib borish ustida tinimsiz ishlashi ,xalq og'zaki ijodini , yozma adabiyotning jahonga tanilgan durdonalarini o'qib o'rganib borishi , hikmatli sozlar maqollar va matallarni o'rinci ishlata bilish texnikasini o'zlashtirib olishi lozim ,shu bilan birga nutqda badiiy adabiyot hikmatli so'z ,maqollar va matallarni keragidan ortiqcha ishlatish maqsadga muofiq emas ,chunki tinglovchilarda ko'ngilsiz taassurot qolishi mumkin .

Nutqimizda hikmatli so'zlar , maqol va matallardan foydalanish qadim davirlardan qo'llanilib kelingan .Abu Rayhon Beruniy ,Abu Nasr Farobi ,Abu Ali Ibn Sino ,Al Xorazmiy ,Maxmud Qoshg'ariy ,Zamaxshariy ,Yusuf Xos Hojib , Axmad Yugnakiy ,So'fi Olloyor,Abduraxmon Jomiy ,Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutqida juda ko'p hikmatli so'zlardan foydalanishgan .Bunga misol tariqasida Alisher Navoiyning quyidagi misralarini olishimiz mumkin

**Nokasu nojins avlodidin kishi bo'lsin debon ,  
Chekma mehnat,bo'lmas yaxshi hech kasofat olami .**

**Kim ho'tik birlan kuchukni ,qancha qilsa tarbiya,  
It bo'lur eshhak bo'lur ,bo'lmas aslo odamiy .**

*Odamiy ersang ,demagil odamiy ,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami .*

Shuningdek ,ulug' shoir Yusuf Xos Hojibning turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan "Qutadg'u bilig " (Baxt keltiruvchi bilim ) asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida :"Bilib so'zlasa ,so'z bilig sanalur ",-degan edi .Qisqa so'zlash so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida :

Urush so'zlama so'z ,biror so'zla oz ,  
Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz.  
deydi .Mazmuni :So'zni ko'p so'zlama kamroq so'zla .Tuman (ming)tugunni shu so'z bilan yech . Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa ,xodisa,voqealarni tinglovchiga to'g'ri ,tasirchan yetkazishdan iborat .Shunday ekan nutqning to'g'riliqi ,ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim axamiyat kasb etadi .Mutafakkir so'zlovchini tilning axamiyatini tushungan holda xovliqmasdan ,so'zning ma'nolarini yaxshi anglab ,nutqni ravon va lo'nda tuzishga chaqiradi .Biz o'zimiz ham oddiy ko'cha ko'yda yaqinlarimiz va dostlarimiz bilan bilgan suhbat davomida ham nutqimizda har xil maqol ,matal va bazida kinoyali so'zlardan ham foydalanamiz bunga misol tariqasida men bilan birga Beruniyda birga o'rta maktabda o'qigan sinfdoshimning hikoyasini keltiraman :  
"Institutda bir domlaning talabalar bilan bo'lgan muomalasi meni nihoyatda hayratga solardi .Uning talabalarga aytayotgan so'zlari nihoyatda kinoyali ,zaxarhanda edi .Bu menda beixtiyor g'azab uyg'otar edi . Talabalarning qiz yoki yigitligidan qatiy nazar doimo sensirab muomala qiladi .U o'zining yoqimsiz gaplari ,o'rinsiz kinoyalari bilan ularni o'zidan bezdirardi .Begona kishilar ishtirok etayotgan darsda meni doskaga chaqirdilar .Taxlil etilishi zarur bolgan gapni doskaga yozdilar .Qo'shma gapni yozishda xatoga yo'l qo'yibman shekilli ,domla menga qo'pollik bilan :"Ey o'qimagan ... lanati ,savodsiz ,qishloqi .Seni o'rta maktabda kim o'qitgan o'zi ?..."deya o'shqira ketdi .Men o'z xatoimni tushunmaganim bir sari menga qilinayotgan muomaladan yer yorilmadi-yu yerga kirib ketsam .Xar bir so'z menga o'qdek sanchilganini sezib turardim .Domla esa hali beri vajohatidan tushadigan emas .Shunda sekingina hamma anglaydigan qilib dona dona so'zlar bilan :"Men o'rta maktabda sizdan ta'lim olib , Beruniyga yollanma bilan borgan o'qituvchi o'qitgan ,o'qituvchimizni siz o'qitgan ekansiz "- ,dedim .So'zlarimdan lol qolgan auditoriya ham ,domla ham suv quyganday jim qolishdi .  
Darhaqiqat , muomala madaniyati kishining kayfiyatigagina emas ,tarbiya samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'rinish turibdi .Bunday o'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashga munosib emaslar .Har qanday so'z o'rnida qo'llanganidagina ko'zlangan maqsadga yetishishi mumkin . Har bir so'zni ,har bir iborani kishi qalbiga singdirgan tarzda yetkaza bilish notiqlik san'atidir .

Demak ,nutq tushunchasi har bir xalq tili va millat ma'naviyatini belgilovchi yoki korsatuvchi odob va nafosat kategoriyasi hisoblanar ekan .

Foydalanilgan adabyotlar :

- 1.M.I.ISRAIL,L.I.TASHMUXAMEDOVA :Notiqlik san'ati ,Toshkent -2019 .
- 2.POLAT NOSIROV :O'zbek nutq madaniyati ,Toshkent -2004.
- 3.JALILOV.X:Notiqlik san'ati ,Toshkent -1976 .
- 4.Internet malumotlari .